O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(III QISM)

(2024-YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III QISM)

(2024-yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКА И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА”

«ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ-III)

(25- ноября 2024 г.)

САМАРКАНД – 2024

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘RNI

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, mustaqil ilmiy tadqiqotchisi. ulmasovaoigul8@gmail.com

Annotatsiya ushbu maqolada xizmatlar sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning o‘rni ilmiy asoslangan bo‘lib, ayniqsa bo‘nda asosan innovatsiyaga asoslangan kichik biznesni davlat tomonidan rivojlantirishga alohida ustuvorlik berilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, kichik biznes, davlat tomonidan tartibga solish, davlatning iqtisodiy dasturlari.

Аннотация: В статье научно обоснованы важные роли государственной поддержки малого бизнеса в сфере услуг и на основе этого особое внимание со стороны государства уделяется развитию малого бизнеса инновационной направленности.

Ключевые слова: сфера услуг, малый бизнес, государственное регулирование, государственные экономические программы.

Abstract: The article provides scientific substantiation of important areas of state support for small businesses in the service sector and, based on these areas, the state pays special attention to the development of small businesses with an innovative focus.

Key words: service sector, small business, government regulation, government economic programs.

Mamlakatimizda xizmatlar sohasida kichik biznesning rivojlanishiga mazkur sohani turli darajada davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunda bugungi kunda eng avvolo davlat tomonidan uning me’yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqilib, mavjudlari takomillashtirilib, kichik korxonalarni moliya-kredit va investitsiya jihatidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish soha taraqiyotida yangi iqtisodiy imkiniyatlarni yaratmoqda.

Mamlakatimizda “iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini, ya’ni ayrim funksiyalarini qisqartirish, uning kichik korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash”[39] hisoblanadi. Shuningdek, davlatning narxlarni “muzlatib” qo‘yish siyosati, bu iqtisodiyotni tartibga solishning

[39] Milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Yangi asr avlodi, 2001. 62-bet.

inflyatsiyaga qarshi tadbirlari hisoblanib, inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritilishi xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarida inflyatsiya darajasini pasaytirib investitsiyalar hajmining oshishini rag‘batlantiradi.

Ta’kidlash joizki, sohada kichik biznesni davlat tamonidan qullab quvatlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-sonli “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlk muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”, “Davlat va xususiy sektor sherikligi to‘g‘risida”gi Qonun loyihalari hamda 30 dan ziyod qonun va me’yoriy hujjatlari asosida bu yunalishda faol ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tamonidan ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar oqibatida 2020-yil davomida 92,9 mingdan ortiq yangi kichik tadbirkorlik subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berib, natijada 2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 334767 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 71837 taga ko‘paygan.

Ayniqsa keying yillarda xizmatlar sohasida xususiy o‘z biznesini tashkil etishga intilayotgan yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratish borasidagi ishlar bank tizimi faoliyatining diqqat markazida bo‘lgan.

Xizmatlar sohasida davlat tamonidan qo‘llab quvatlash asosida kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish, kasanachilikni rivojlantirish, hunarmandchilik, sartaroshxona xizmatini tashkil etish, tikuvchilik va chevarlikni qo‘llab-quvvatlash, poyafzal tuzatish ustaxonasini tashkil etish, umumiy ovqatlanish xizmatini tashkil etish, maishiy texnikalarni tuzatadigan ustaxonalarni tashkil etish, go‘zallik salonlari tashkil qilish, aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi shaxobchalar qurish, avtomobillarni yuvish shaxobchasi tashkil qilish, kompyuter xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish, savdo faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida kichik biznes korxonalarini tashkil etish yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi.

Shuningdek, kichik biznesni davlat tomonidan qullab-quvatlash va tartibga solishning bir qator shakllarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

- davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chiqilishi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, ixtirolarini davlat tomonidan rag‘batlantirish hamda kichik biznesda ijobiy tarkibiy siljishlarni ta’minlash;

- investitsiya jarayoni va iqtisodiy o‘sishni kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish muhitining shakllanishi;

- kichik biznes ehtiyojining mos ishchi kuchi bozoriga davlat tomonidan ta’sir ko‘rsatish;


- xizmatlar sohasi kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishdan keladigan tuzilmalarni shakllantirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning hozirgi davrdagi yuqori shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi xizmatlar sohasida kichik biznesni tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat iqtisodiy dasturlar o‘rta muddatli, favqulotdagi va maqsadli bulishi mumkin. O‘rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulotdagi dasturlar tig‘iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo‘ladi, maqsadli dasturlar esa mintaqalardagi turli ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini davlat tomonidan qullab quvvatlashning o‘rnini oshirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish soha taraqqiyotida yangi iqtisodiy imkoniyatlarini ochib beradi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qullab quvvatlash bir tomondan davlat xizmatlari sohasida kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy huquqiy xo‘jalikni takomillashtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatning aniq kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi:

Xizmatlar sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rnini belgilovchi asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat (1-rasm):



1-rasm. Xizmatlar sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari

Birinchidan, xizmat ko‘rsatishda kichik biznesni qo‘shimcha kredit resurslari bilan ta’minlash tizimini shakllantirish;

Ikkinchidan, davlat tomonidan xizmatlar sohasida kichik biznes korhonalarida soliq tizimini takomillashtirish va soliq imtiyozlari berish;

Uchinchidan, davlat tomonidan xizmatlar sohasida kichik biznesga xalqaro moliya institutlaridan olinadigan kreditlash tizimini takomillashtirish;

To‘rtinchidan, xizmatlar sohasida kichik biznesga qo‘shimcha davlat imtiyozlari berish, qonunlarni takomillashtirish, tegishli qarorlar chiqarish;

Beshinchidan, xizmat ko‘rsatishda kichik biznes korxonalari uchun lizing asosida texnik sotib olish, imtiyozli asbob-uskunalar sotib olish imkoniyati yaratiladi;

Oltinchidan, xizmat ko‘rsatishda kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat xususiy sheriklik munosabatlarini takomillashtirish va boshqa shu kabilardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sokolinskaya, Yu. M., Kolesnichenko, Ye. A., & Chekudayev, K. V. (2020). *Tendensii razvitiya malogo predprinimatelstva*. *82*(1), 365–368. https://doi.org/10.20914/2310-1202-2020-1-365-368
2. Schaper, M., Volery, T., Weber, P., & Gibson, B. (2014). Entrepreneurship and Small Business. Wiley.
3. Stokes, D., & Wilson, N. (2010). Small Business Management and Entrepreneurship. Cengage Learning.
4. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row.
5. U.S. Small Business Administration (SBA). Small Business Size Standards. Retrieved from www.sba.gov
6. Scarborough, N. M., & Zimmerer, T. W. (2006). Effective Small Business Management: An Entrepreneurial Approach. Prentice Hall.
7. Storey, D. J. (1994). Understanding the Small Business Sector. Routledge.
8. Lapusta.M.G., Starostin Yu.L. Maloye predprinimatelstvo: Ucheb.posobiye.-2-e izd.-M.: INFRA-M,2022-S.305., Klaus Bryumer. Sistema podderjki malogo predprinimatelstva v Germanii.// Dengi i kredit.-2001. –C.163-171.

“YASHIL ENERGETIKA” BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich
SamISI, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi asisstenti
Baxtiyorova Ruxshona Ikromjon qizi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
seralievikrom2@gmail.com

Artikova Shoxida Ilyasovna Qodirboyev Shohzod Anvar o'g'li	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	149
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING O'RNI	152
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich Baxtiyorova Ruxshona Ikromjon qizi	"YASHIL ENERGETIKA" BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	155
V SHO'BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOSHQA TARMOQLAR VA SOHALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI		
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li Tleymuratov Bahadir Genjemuratovish	ZIYORAT TURIZMI TARIXI VA UNING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI	159
Djuraboyeva Durdona Baxtiyor qizi Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI	165
Aliqulov Hazrat Amirqulovich	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI KREDITLASHNI ME'YORIY- HUQUQIY ASOSLARI	169
Xasanova Yulduz	INSON KAPITALI VA TA'LIM XIZMATLARI: O'ZBEKISTON ILMIY VA INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH GAROVI	179
Po'latova Shahnoza Abdirashitovna	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL MARKETING KONSEPSIYASINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	182
Жумақулов Озодбек	ИНВЕСТОР УЧУН ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЭНГ МУКАММАЛ ВА МАСЪУЛИЯТЛИ ТАДБИРЛАРДАН БИРИДИР	187
Boboqulov Sanjar	TADBIRKORLIK TUSHUNCHASINING	191

«INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO'PLAMI

(III QISM)

(2024-yil 25-noyabr)

"STAP-SEL" MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2024.

ISBN: 978-9910-9795-7-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **"STAP-SEL" MChJ.** nashriyoti,
Samarqand.

Qog'oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog'ozi.
"Times New Roman" garniturasi.
Nashr bosma tabog'i 15,62
Buyurtma № 0075A/23. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo'limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko'chasi 60-uy.